DOI: https://10.5281/zenodo.17483495

MA’RIFAT SARI YO‘L: CHO‘LPON “KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDA KONFLIKT VA UNING TURLARI

Shoimova Mushtariy Zoir qizi
JDPU Filologiya fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Tulishova Gulzina Ravshanovna
JDPU Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: gulzinatulishova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani badiiy, falsafiy va ma’naviy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda millatning ma’rifat sari intilishi, ozodlik va insoniy erkinlik g‘oyalari yoritilgan. “Kecha va kunduz” romanidan o‘rin olgan konflikt va uning turlari tushuntirib beriladi. Asarning til uslubi, ramziy obrazlari va dolzarbligi haqida ilmiy xulosalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Cho‘lpon, **“Kecha va kunduz”,** ozodlik, ma’rifat, jaholat, ayol taqdiri, konflikt, xarakterlararo konflikt, ichki (psixologik) konflikt.

ABSTRACT

This article analyzes Cholpon’s novel **“Night and Day”** from artistic, philosophical, and spiritual perspectives. The novel highlights the nation’s aspiration toward enlightenment, as well as the ideas of freedom and human independence. The article explains the conflict and its types presented in **“Night and Day.”** It also provides scientific conclusions regarding the language style, symbolic imagery, and relevance of the work.

Keywords: Cholpon, *“Night and Day”*, freedom, enlightenment, ignorance, women’s destiny, conflict, inter-character conflict, internal (psychological) conflict.

KIRISH

Badiiy asarlarni o‘qish va ularni tahlil qilish jarayonida shunga guvoh bo‘lamizki, badiiy asar syujetidan qahramonlar o‘rtasida, qahramon va asar yozilgan davr, shuningdek, qahramonning o‘z ruhiyati bilan ziddiyati o‘rin olgan bo‘ladi. Chunki har qanday badiiy asar hayot ziddiyatlaridan, o‘zaro kurashlaridan tarkib topadi. Shu o‘rinda adabiyotshunos olim Dilmurod Quronovning badiiy asar haqidagi quyidagi

ta’rifi buning yaqqol dalilidir: “Badiiy asar hayot ziddiyatlarini umumlashtiruvchi voqealar sistemasidir”. Bundan ko‘rinadiki, badiiy asar syujeti har doim voqealardan, voqealar esa personajlarning xatti-harakatlari, o‘zaro munosabatlari, ziddiyatlaridan tarkib topadi. Adabiyotshunoslikda badiiy asar syujetini harakatga keltiruvchi ziddiyatlar konflikt deb ataladi. Taniqli adabiyotshunos olim Izzat Sulton “Adabiyot nazariyasi” kitobida konfliktga quyidagicha ta’rif beradi: “Konflikt badiiy asarda tasvirlangan xarakterlar, ifoda etilgan g‘oyalar, kayfiyatlarning kurashidir”[1]. Shuningdek, konfliktning quyidagi uch turini ham keltirib o‘tadi: a) xarakterlararo konflikt; b) qahramon va muhit o‘rtasidagi konflikt; c) ichki (psixologik) konflikt. “Kecha va kunduz – O‘zbek yozuvchisi Abdulhamid Cho‘lpon tomonidan yozilgan roman. Bu asarga “O‘tkan kunlar asari darajasida” deb baho berilgan. U o‘zbek adabiyotidagi ilk roman – dilogiya bo‘lib, ikki kitobdan iborat. Birinchi qismi “Kecha” 1933-1934-yillarda Moskvada yozilgan. Dastlabki boblari 1935-yilda Toshkentdagi adabiy jurnalning 1-sonida bosilgan, asar 1936-yilda to‘liq holda nashr etilgan.

ASOSIY QISM

Asardagi voqealar ilk bahorda boshlanib, qish chillasida tugaydi. Cho‘lpon romaniga “Hamal keldi – amal keldi” maqolini epigraf qilib olgan”[2]. “Kecha va kunduz” romani o‘zbek xalqining mustamlaka davridagi og‘ir hayoti, ijtimoiy adolatsizlik, millatning jaholat botqog‘iga botib borayotgani va shu bilan birga undagi uyg‘onish, ozodlik istagini chuqur badiiy tahlil qiladi.

Badiiy asardagi konflikt va uning turlarini Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Ushbu asarda xalq va jamiyat hayotidagi muhim ziddiyatlar ifodalangan. Muallif Zebi, Razzoqso‘fi, Qurbonbibi kabi obrazlar taqdiri misolida butun bir xalqning fojiali hayotini ko‘rsatib beradi. Butun bir asar syujeti konflikt asosiga qurilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki asarning bosh qahramoni bo‘lgan Zebi va o‘sha davr o‘rtasidagi kurash asar syujetini harakatga keltiradi. Shuningdek, asarda Enaxon, O‘lmasjon kabi obrazlar va ularning oilalari hamda Akbarali mingboshi, noyib to‘ra kabi obrazlar hayoti o‘zaro bir- biriga zid qo‘yiladi. Yozuvchi O‘lmasjon, Enaxon kabi obrazlar misolida o‘sha davrdagi oddiy ahvoling zabun ahvoli, ro‘zg‘or tashvishlari-yu qiyinchiliklarini aks ettirgan bo‘lsa, Akbarali mingboshi, Noyib to‘ra kabi obrazlar misolida esa amaldorlarning asl qiyofasini ochib beradi. Bu ham asar syujetini harakatga keltiruvchi konfliktning bir ko‘rinishidir. Shuningdek, asarda ichki (psixologik) konflikt turi ham keng o‘rin olgan. Buni biz O‘lmasjon va Zebi obrazlari misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bu ikkala obrazning ichki (psixologik) konflikti bir o‘rinda, ya’ni Zebi va uning o‘rtoqlari qishloqdan shaharga qaytayotganlarida O‘lmasjon va Zebining safar oxirida yolg‘iz qolgan voqealarida aks etadi. Bir vaqtning o‘zida har ikkala obraz ham o‘z ruhiyati

bilan ziddiyatga kirishishi asarda quyidagicha ifodalanadi: “Ko‘ngillardagi ajib hislarni bir-biriga bildirmoq uchun hali fursat topolmasdan entikkan bu ikki yosh endi 10-15 minut holi fursat topganlarida ortiqcha talvasaga tushgan yuraklari dastidan nima deyishni bila olmay entikardilar” [3]. Chunki O‘lmasjonning ruhiyati uni dildagi gaplarini qanchalik aytishga undamasin, u buning uchun o‘zida yetarlicha kuch topa olmaydi. Shuningdek, asarda Miryoqub obrazi ham kitobxonning diqqat-e’tiborini o‘ziga tortadi. Chunki bu obraz asarda shu qadar murakkab tasvirlanganki, bir qarashda muallifning bu obrazga yuklagan vazifasini ko‘ra olmaymiz. Uni salbiy qahramonlar guruhiga ham, Zebi, Qurbonbibi yanglig‘ qahramonlar sirasiga ham kiritish qiyin. Chunki u ezgulik bilan tubanlik o‘rtasida harakat qiladi. Dastlab Akbarali mingboshi bilan birga bir qancha adolatsizliklarga, qabih ishlarga qo‘l urgan bo‘lsa, keyinchalik esa jadidlardan bo‘lgan Sharafiddin Xo‘jayev bilan uchrashishi va suhbati natijasida ezgu maqsadlar sari harakat qiladi. “Millat”, “jadid” kabi tushunchalarning asl ma’nosini anglaydi va ruhiyatida “Nima uchun men shu vaqtgacha jadidlarni so‘kib kelganman? Agar jadid shu bo‘lsa, nimaga men jadid emasman nimaga mingboshi jadid emas, hamma jadid emas” [4] kabi savollar paydo bo‘ladi. Bular esa dastlab asarda biz tanigan tuban Miryoqubning emas, balki, o‘z ruhiyati bilan ziddiyatga kirishib, qarashlari tamomila o‘zgargan Miryoqubning savollari edi. Shuningdek, asarda Akbarali mingboshi va Ahmadboy Husainov obrazlari ham bir- biriga zid qo‘yiladi. Bu ikkala obraz ham o‘z davrining o‘ziga to‘q, boy- badavlat amaldorlaridir. Ammo ularning qilayotgan ishlari konfliktni yuzaga keltiradi. Akbarali mingboshi boshqalarning mehnati evaziga qo‘lga kiritgan mol- davlatini samarasiz, behuda ishlarga sarf qilgan bo‘lsa, Ahmadboy Husainov esa yangi usul maktablarini ochishga sarf qiladi. Asardagi bu ikkala obrazning bir- biriga zid qo‘yilishi orqali Akbarali mingboshi kabi amaldorlar qiyofasi ochib berilgan. “Kecha va Kunduz” romanida xalq va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan barcha ziddiyatlar, adibning bor orzulari ifodalangan. Unda mehnatkash xalqning, xususan, xotin-qizlarning og‘ir kulfatu, mashaqqatlarga to‘liq hayoti jonli voqealar, yorqin obrazlar vositasida ta’sirli va ishonarli tasvirlangan. Asardagi asosiy ijobiy qahramonlardan biri bo‘lgan go‘zal va xushovoz, sodda va huquqsiz Zebi timsoli fikrimizni dalillaydi. Muallif Zebi taqdirida, Razzoq so‘fi va Qurbonbibi taqdirida butun bir xalqning davrga xos fojeali hayotini yaqqol ko‘rsatib beradi[5]. “Asarning eng asosiy g‘oyasi – millat faqat ilm va ma’rifat orqali har qanday qiyinchiliklardan qutulishi mumkin. Bu asar bugungi kunda ham dolzarb, agar jamiyat rivojlanishini istasa, ayollarni ilmli qilish, ularga erkinlik berish va erkaklarni faqat mansab uchun emas, xalq uchun ishlaydigan qilib tarbiyalash kerak. “Kecha va Kunduz” romani o‘zbek jamiyatining ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarini yoritishda, yosh avlodning o‘zligini anglashdagi kurashini tasvirlashda katta ahamiyatga ega”.[6] Bu asar nafaqat

badiiy, balki tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo‘lib, o‘z davrining ruhiyatini, o‘zgarishlarni va kelajakni tasvirlashda muhim rol o‘ynaydi.

XULOSA

Shuni aytish mumkinki, yozuvchi Zebi tushib qolgan davrni, xarakterlarni va ularning ruhiyatini ochib berishda konfliktdan foydalangan. Yozuvchi Miryoqub obrazida aks etgan ichki (psixologik) konfliktni yuzaga keltirishda ruhiy romanlarga xos tasvir usullaridan foydalangan. O‘sha davr koloritini esa Zebi, Qurbonbibi, Razzoqso‘fi kabi obrazlari misolida ochib bergan. Bu esa asarning badiiy qiymatini yana-da oshirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. D. Quronov. Adabiyot nazariyasi. T: Navoiy universiteti, 2018. 110-sahifa
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kecha_va_kunduz
3. I. Sulton. Adabiyot nazariyasi.T: O‘qituvchi, 2005.
4. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. T: Sharq, 2000.
5. „ABDULHAMID CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDAGI IJTIMOIY-INSONIY MUNOSABATLAR LISONIY TAHLIL OBEKTI SIFATIDA“ (o‘zbek). *samxorfil*. 2023-yil 6-aprelda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 7-aprel 2023-yil.
6. file:///C:/Users/user/Downloads/35-39.pdf